

25-Sentyabr, 2025-yil

TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Azamova Muattarxon Akramjon qizi

Qo‘qon shahar 1-son politexnikumi “Umumta’lim fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ma’lumki mamlakatimizda ta’limga yondashuv o‘ziga xos ahamiyatga ega, uning zahirida zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi esa talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish masalasidir.*

Tayanch iboralar: *Ta’limga yondashuv, yoshlar ongida mustaqillikka mehr, Milliy mansublikni belgilashda belgilashda, milliy tuyg‘uga ega shaxs.*

O‘zbekistonda ta’lim tizimining asosiy maqsadi va mohiyatidan kelib chiqib shuni e’tirof etish mumkinki, yoshlar ongiga mustaqillik tushunchasini mustahkamlash, xalqi va millati bilan faxrlanish, milliy iftixor tuyg‘ularini singdirishda “pedagog-talaba” o‘rtasida maqsadni birligi, “tarbiyachi-tarbiyalanuvchi” munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish bevosita talaba-yoshlarga bog‘liqligini tushuntirishdir. Buni amalga oshirish uchun esa ta’lim jarayonida ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta’minlash, shuningdek, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda qiziqishni qaror toptirishga e’tibor qaratish lozim.

Bunda asosan yo‘nalishlarda ta’lim olayotgan talabalarga mamlakat istiqbolini ta’minlashda mutaxassislik fanlarining o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligini tushuntirish, yoshlar ongida mustaqillikka mehr, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiluvchi dalillar, yurt taraqqiyotini ifodalovchi raqamlarni keltirish, Respublika hukumati tomonidan olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, Oliy Majlis sessiyalaridagi davlatimiz rahbari tomonidan berilgan ma’lumotlardan foydalanish, talaba-yoshlarning o‘zlari bularni mukammal o‘qib, erkin mushohada qilishlari, ularni millatimiz va davlatchiligimiz tarixi va qadimiy an’analarimiz bilan qiyoslab o‘zlashtirishlari yaxshi natijalar beradi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda balandparvoz gaplar, quruq nasixatgo‘ylikdan qochish kerak. Talabalarning “kattalik hissiga” tayanib, Vatan va el-yurt taraqqiyotida ularning bevosita mas’ul ekanliklari, tarixda ota-bobolarimiz hayoti yuksak ma’naviyat egasi ekanligimizga asos bo‘lishini jiddiy turib, ularning shaxsiy fikrlariga qo‘shilgan holda, bo‘lajak ma’lum kasbkor egalari sifatidagi bilimlarini o‘rgangan tartibda yondashish kerak bo‘ladi. Muammoga oid mambalarni o‘rganishda, shaxsda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish jarayoni quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi degan xulosaga kelish imkoniyatini berdi:

1. Milliy mansublik – shaxsning muayyan millat vakili ekanligini ifodalovchi holat, maqomini ifodalanishi. Mazkur tushuncha shaxsning nasl-nasabini ham ifodalashga xizmat qiladi. Zero ota-ona yoki sulolaning qanday millat vakili ekanligi farzandlarda ana shu

25-Sentyabr, 2025-yil

mansublikni belgilashda onaning maqomi muhim ahamiyatga ega. Qadimdan o‘g‘il bolalarning farzandlari ma‘lum urug‘ yoki sulolaning davomchilari, qizning farzandlari esa begona urug‘ yoki sulolaning nasli sifatida baholanib kelingan. Shu sababli o‘g‘il uylantirishga jiddiy e‘tibor qaratilgan va kelinlikka ana shu sulolaga munosib qiz tanlangan. Zamonaviy sharoitda ham dunyoga kelgan chaqaloq uning onasi mansub bo‘lgan millat vakili maqomini oladi.

2. Milliy tuyg‘u, ruhiyat (milliy psixologiyaning e‘tirofida) – subyektning obyektga bo‘lgan muhim munosabati, mazkur munosabat mazmunida aks etuvchi xususiyat bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar, shaxsning atrof-muhitga ta‘sirida namoyon bo‘ladi. Milliy tuyg‘uga ega shaxs o‘zini millat vakili ekanligini his eta olishi, u kechiradigan turmush tarsi millatdoshlariniki bilan uyg‘un bo‘la olishi lozim.

3. Milliy xarakter – millat vakillari ruhiyatida aks etuvchi barqaror psixik xususiyatlar birligi bo‘lib, u ham ijtimoiy borliqqa munosabatda aks etadi. Millat vakillarining turmush tarzi, ijtimoiy maqsadlari, hayotiy faoliyatlari hamda ruhiy kechinmalarining yaxlitligi milliy xarakterga xos yetakchi psixik xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

4. Milliy ong – muayyan millatga mansub kishilar tomonidan milliy qadryatlarga tayangan holda ijtimoiy munosabatlar hamda hayotiy faoliyatlarni samarali tashkil etishga nisbatan ongli yondashuv darajasi sanaladi. Falsafiy manbalarda “milliy ong” tushunchasiga shunday ta‘rif beriladi: “millatning yagona tili, urf odatlari, an‘analari, qadriyatlari va ma‘naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O‘z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o‘z-o‘zini anglash darajasiga ko‘taradi”.

5. Milliy o‘z-o‘zini anglash – har bir millat (elat)ning o‘zining real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma‘naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an‘analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishlaridir. Milliy o‘z-o‘zini anglash millatning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni va uning umumiy taraqqiyotiga ta‘sirining munosib baholanishiga xizmat qiladi.

6. Milliy g‘urur – har bir millatning o‘z-o‘zini anglashi natijasida sodir bo‘ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg‘u o‘z on zamini, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma‘naviy merosdan, o‘z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalaridan o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro‘-e‘tibori bilan faxrlanish hissiyotidir. ...”milliy g‘urur har bir insonda o‘z millatining moddiy-ma‘naviy merosini o‘zlashtirish, urf-odatlarini, an‘analari, qadriyatlari, tarixni mukammal bilish va uni o‘zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o‘z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi”. Milliy g‘ururga egalik millat vakili sifatida o‘zi mansub bo‘lgan millat tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan, millatning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasidan faxrlanishnigina ifodalab qolmay, balki milliy taraqqiyot, millat taqdiri va istiqboli uchun kurashish, bu borada chuqur mas‘ullikni his etish hamdir.

7. Milliy iftixor – milliy g‘urur tuyg‘usiga egalikni yuqori bosqichi bo‘lib, u millatning “yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir”. Milliy iftixor

25-Sentyabr, 2025-yil

tuyg‘usiga egalik, shuningdek, millatning kishilik taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rnini, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan munosib hissasini, qadr-qimmatini, obro‘-e‘tiborini munosib baholay olish, millat istiqboliga bo‘lgan ishonchga egalikni ham ifodalaydi. Milliy iftixor tuyg‘usiga egalikning mantiqiy ketma-ketligini tasvirda shunday ifodalash mumkin. Demak, yoshlar ongiga milliy iftixor tuyg‘usini singdirish yengil-yelpi qaraladigan yoki shoshma-shosharlikni talab qiladigan jarayon emas, aksincha, bu holat pedagoglar harakatining behuda sarflanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan milliy istiqtibor lol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini o‘rgatishga qo‘yilgan universal talablarga e‘tiborni qaratish o‘rinli bo‘lar edi, deb hisoblaymiz:

- O‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda talabalarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish;

- Ta‘lim-tarbiyaning ilg‘or, ta‘sirchan vositalaridan, zamonaviy o‘qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- Ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirish, ta‘limning eskicha uslub va tamoyillarini qo‘llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- Ta‘lim jarayonida tazyiq o‘tkazmasdan ma‘rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikirlash, baxs-munozar yoritish kunikmalarini oshirishga etibot qaratish:

- O‘qtuvchi va tinglovchilar o‘rtasida o‘zaro xamfikirlik va xamkorlik muxkini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarining sharxlashda hayotiy misollar:



1-rasm. Milliy iftixor tuyg‘usiga egalikning mantiqiy ketma-ketligi.

25-Sentyabr, 2025-yil

- Bugungi dunyoda ro‘y beradigan voqealar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish;

- Yoshlarda g‘oyalar o‘z ma‘no-mohiyatiga ko‘ra bunyodkor yoki vayronkor bo‘lishi haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni shakllantirish;

- Milliy istiqlol g‘oyasining insonparvarlik mohiyatini ko‘rsatish asosida mustaqillik biz uchun eng oliy qadriyat, uni asrab-avaylash esa har birimizning muqaddas burchimiz ekanini talabalarning qalbi va ongiga singdirish.

Har qanday fikrni tinglovchiga yetkazishda, bizning holatimizda, talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qiluvchi o‘qituvchi shaxsi va uning o‘qituvchilik layoqati tarbiyalanuvchi tomonidan his qilinishi katta ahamiyat kasb etadi. Agar o‘qituvchi obro‘li bo‘lsa, u qaysi fandan dars berishidan qat‘iy nazar, beradigan ma‘lumoti ishonarli va ta‘sirchan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari // T.: “O‘zbekiston”, 2020. – B.401, 105-106.

2. Prezident Mirziyoyev Sh. Raisligida 2021 yil 19 yanvardagi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi. // Xalq so‘zi. 2021 yil 20 yanvar.

3. Zununov A. Pedagogika tarixi // Toshkent. Darslik.-2004. B.21

4. J.Dasanbayev, X.To‘raqulov, M.Xaydarov, O.Dasanbayeva. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T., “Fan va texnologiya”, 2008, B.89